

PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF A PRIMARY TEACHER**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI****Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich**Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
University of Business and Science**Mahkamova Zamira Abdurahmon kizi**University of Business and Science
Primary education student, 1st stage<https://doi.org/10.5281/zenodo.20134111>

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi psixologik determinantlar tahlil qilinadi. Xususan, motivatsiya, refleksiya, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetensiya va shaxsiy rivojlanish omillarining pedagog faoliyatidagi o‘rni yoritilgan. Tadqiqot natijalari o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida psixologik omillar muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kasbiy kompetensiya, psixologik determinantlar, motivatsiya, o‘z-o‘zini boshqarish, refleksiya.

Annotation. This article analyzes the psychological determinants influencing the professional competence development of primary school teachers. It highlights the role of motivation, reflection, emotional stability, communicative competence, and personal growth in pedagogical activity. The findings show that psychological factors play a crucial role in teachers' professional development.

Keywords: professional competence, psychological determinants, motivation, self-management, reflection.

Аннотация. В данной статье анализируются психологические детерминанты, влияющие на развитие профессиональной компетентности учителей начальных классов. Освещается роль мотивации, рефлексии, эмоциональной устойчивости, коммуникативной компетенции и личностного развития. Результаты исследования подтверждают значимость психологических факторов в профессиональном становлении педагога.

Ключевые слова: профессиональная компетентность, психологические факторы, мотивация, самоорганизация, рефлексия.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim tizimi oldiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot oqimining keskin ortishi hamda jamiyatning innovatsion taraqqiyot yo‘liga o‘tishi natijasida ta‘limdan nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, uni mustaqil fikrlashga, muammoli vaziyatlarda samarali qaror qabul qilishga hamda ijtimoiy faol bo‘lishga tayyorlash talabi kuchaymoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta‘lim bosqichi o‘quvchilarning intellektual, ijtimoiy va ma‘naviy rivojlanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli, ushbu bosqichda faoliyat yurituvchi o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini zamon talablari asosida rivojlantirish masalasi alohida dolzarblik kasb etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi zamonaviy ta‘lim muhitida ko‘p funksiyali mutaxassis sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat o‘quvchilarga bilim beruvchi pedagog, balki tarbiyachi, psixolog, fasilitator, kommunikator va raqamli texnologiyalardan samarali foydalana oladigan mutaxassis sifatida faoliyat olib boradi. Bu esa o‘qituvchidan yuqori darajadagi kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalar bilan bir qatorda, rivojlangan psixologik tayyorgarlikni ham talab etadi. Chunki pedagogik faoliyat inson omili bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, unda o‘qituvchining

shaxsiy sifatлари, emotsional barqarorligi, kommunikativ madaniyati va refleksiv qobiliyatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, o'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirishda psixologik determinantlar muhim o'rin egallaydi. Psixologik determinantlar deganda, shaxs faoliyatining samaradorligini belgilovchi ichki omillar — motivatsiya, ehtiyojlar, qadriyatlar tizimi, emotsional-intellektual holat, o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari va refleksiya jarayonlari tushuniladi. Mazkur omillar pedagogning kasbiy faoliyatga munosabatini belgilaydi, uning innovatsion faoliyatga tayyorligini oshiradi hamda o'quvchilar bilan samarali pedagogik muloqot o'rnatish imkonini yaratadi.

Ayniqsa, ichki motivatsiya o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini, kasbiy o'sishga intilishini va o'z ustida ishlashga tayyorligini belgilaydi. Emotsional barqarorlik esa pedagogik jarayonda uchraydigan turli stressli vaziyatlarda o'zini tutish, konfliktlarni konstruktiv hal etish va o'quvchilar bilan ijobiy psixologik muhit yaratishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, refleksiv qobiliyatlar o'qituvchiga o'z faoliyatini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali kasbiy mahoratini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi, raqamli ta'lim muhitining kengayishi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning tatbiq etilishi o'qituvchining psixologik tayyorgarligiga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda. Shu sababli, o'qituvchining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda nafaqat metodik va didaktik jihatlar, balki psixologik omillarni chuqur o'rganish va tizimli ravishda rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning psixologik determinantlarini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishdagi o'rnini asoslashdan iborat. Shuningdek, maqolada psixologik omillarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik shart-sharoitlar va metodik yondashuvlar ham yoritiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida kompleks va tizimli tarzda o'rganilgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biridir. Xususan, V.A. Slastenin pedagogik faoliyatni shaxsiy yo'naltirilgan tizim sifatida talqin qilib, unda o'qituvchining kasbiy shakllanishi uning qadriyatlari, motivlari va pedagogik pozitsiyasi bilan uzviy bog'liqligini asoslab bergan. A.K. Markova esa kasbiy kompetentlikni o'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka hamda individual-psixologik xususiyatlarining integrativ birligi sifatida izohlaydi va kasbiy o'sishda refleksiya hamda o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratadi. N.V. Kuzmina tadqiqotlarida esa pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari — konstruktiv, tashkilotchilik, kommunikativ va gnoseologik kompetensiyalar tizimi sifatida yoritilib, o'qituvchining kasbiy samaradorligi aynan ushbu komponentlarning uyg'un rivojlanishiga bog'liqligi ta'kidlanadi.

Psixologik determinantlar muammosi faoliyat nazariyasi doirasida chuqur ilmiy asoslangan bo'lib, L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-madaniy rivojlanish konsepsiyasida shaxs taraqqiyotining asosiy manbai sifatida ijtimoiy muhit va o'zaro ta'sir jarayonlari ko'rsatiladi. A.N. Leontyev faoliyatning tuzilmasini motiv–maqsad–harakat tizimi orqali izohlab, shaxs rivojida ichki motivatsiya va faoliyatga ongli munosabatning hal qiluvchi rolini asoslaydi. S.L. Rubinshteyn esa psixikaning faoliyatda namoyon bo'lish tamoyiliga tayanib, tashqi ta'sirlar faqat ichki sharoitlar orqali amalga oshirishini ta'kidlaydi. Ushbu nazariy qarashlar o'qituvchining kasbiy rivojlanishini tushinishda psixologik determinantlarning — motivatsiya, ehtiyojlar, qiziqishlar va emotsional holatlarning — markaziy o'ringa egaligini ko'rsatadi.

Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda pedagogning kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi omillar yanada kengroq talqin etilib, ayniqsa emotsional intellekt, refleksiv kompetensiya va motivatsion sohaning ahamiyati alohida qayd etilmoqda. D. Goleman tomonidan asoslangan emotsional intellekt konsepsiyasi o'qituvchining o'z emotsiyalarini boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini anglash va samarali muloqot o'rnatish qobiliyatlarini kasbiy samaradorlikning

muhim sharti sifatida ko'rsatadi. Shuningdek, refleksiv yondashuv tarafdorlari o'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan ichki mexanizmlarini kasbiy o'sishning asosiy drayveri sifatida talqin qiladilar. Motivatsion nazariyalar doirasida esa ichki motivatsiya, kasbiy qoniqish va o'zini o'zi rivojlantirishga intilish pedagog faoliyatining barqarorligi va samaradorligini ta'minlovchi asosiy psixologik determinantlar sifatida e'tirof etiladi.

ASOSIY QISM. Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish murakkab, ko'p omilli va tizimli jarayon bo'lib, u turli psixologik determinantlarning o'zaro uyg'un ta'siri asosida shakllanadi. Zamonaviy pedagogik va psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining kasbiy samaradorligi nafaqat uning bilim darajasi, balki ichki psixologik resurslari — motivatsiyasi, refleksivligi, emotsional barqarorligi, kommunikativ qobiliyatlari va o'z-o'zini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji bilan bevosita bog'liqdir. Quyida ushbu determinantlar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi va tizimlashtiriladi.

1-jadval. Kasbiy kompetentlikni rivojlantiruvchi psixologik determinantlarning mazmuni

Determinant	Mazmuni	Pedagogik faoliyatga ta'siri
Motivatsiya	Ichki va tashqi rag'batlar tizimi	Kasbiy faollik va innovatsion faoliyatni kuchaytiradi
Refleksiya	O'z faoliyatini tahlil qilish qobiliyati	Xatolarni aniqlash va o'zini takomillashtirishni ta'minlaydi
Emotsional barqarorlik	Stressga chidamlilik va emotsiyalarni boshqarish	Sog'lom psixologik muhitni yaratadi
Kommunikativ kompetensiya	Muloqot va o'zaro ta'sir ko'nikmalari	Ta'lim samaradorligini oshiradi
O'z-o'zini rivojlantirish	Doimiy o'rganish va o'sishga intilish	Kasbiy mahoratning uzluksiz oshishini ta'minlaydi

Motivatsiya pedagogik faoliyatning asosiy harakatlantiruvchi mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi. Ilmiy adabiyotlarda motivatsiya shaxsning faoliyatga bo'lgan ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va qadriyatlar bilan belgilanadigan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, ichki motivatsiya ustun bo'lgan o'qituvchi o'z kasbini anglab yetgan holda faoliyat yuritadi, innovatsion yondashuvlarga ochiq bo'ladi va pedagogik jarayonni takomillashtirishga intiladi. Bunday o'qituvchi uchun kasbiy rivojlanish tashqi nazorat yoki rag'batga emas, balki ichki ehtiyojga aylanadi. Natijada uning kasbiy kompetentligi barqaror va uzluksiz rivojlanib boradi.

Refleksiya pedagogik faoliyatni ongli boshqarishning muhim mexanizmi sifatida qaraladi. Refleksiv yondashuv asosida o'qituvchi o'z pedagogik faoliyatini tahlil qiladi, o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi hamda faoliyatini takomillashtirish yo'llarini belgilaydi. Ilmiy tadqiqotlarda refleksiya metakognitiv jarayon sifatida talqin qilinib, u o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishida markaziy o'rin egallashi ta'kidlanadi. Refleksiv kompetensiya rivojlangan pedagog o'z faoliyatini tanqidiy baholay oladi, pedagogik vaziyatlarga moslashuvchan yondashadi va samarali qarorlar qabul qiladi.

Emotsional barqarorlik pedagogik faoliyatning psixologik barqarorligini ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. O'qituvchining kundalik faoliyati turli stressli vaziyatlar, konfliktlar va yuqori mas'uliyat bilan bog'liq bo'lganligi sababli, uning emotsiyalarni boshqara olish qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Emotsional barqaror pedagog o'quvchilar bilan ijobiy psixologik muhit yaratadi, pedagogik muloqotda muvozanatni saqlaydi va salbiy vaziyatlarni konstruktiv hal eta oladi. Bu esa o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi va ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi.

Kommunikativ kompetensiya boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy faoliyatida markaziy o'rin egallaydi. Chunki ta'lim jarayoni asosan muloqot orqali amalga oshiriladi. O'qituvchining nutq madaniyati, empatiya qobiliyati, tinglay olish ko'nikmasi va ijtimoiy moslashuvchanligi uning kommunikativ kompetensiyasini belgilaydi. Ilmiy yondashuvlarda

kommunikativ kompetensiya pedagogik ta'sir samaradorligini oshiruvchi asosiy omil sifatida baholanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda o'qituvchining kommunikativ madaniyati ularning psixologik rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'z-o'zini rivojlantirish kasbiy kompetentlikni takomillashtirishning uzluksizligini ta'minlovchi muhim determinant hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qituvchi doimiy ravishda yangi bilimlarni egallashi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni o'rganishi va o'z kasbiy faoliyatini yangilab borishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagog o'zining kasbiy salohiyatini muntazam oshirib boradi, yangi pedagogik g'oyalarni amaliyotga tatbiq etadi va ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu jarayon o'qituvchining shaxsiy rivojlanishi bilan bir qatorda, uning kasbiy identifikatsiyasini ham mustahkamlaydi.

2-jadval. Psixologik determinantlarning o'zaro bog'liqligi va natijaviyligi

Determinantlar o'zaro aloqasi	Natijaviy ko'rsatkichlar
Motivatsiya + refleksiya	Ongli kasbiy o'sish
Emotsional barqarorlik + kommunikativlik	Sog'lom pedagogik muhit
Refleksiya + o'z-o'zini rivojlantirish	Innovatsion faoliyat
Motivatsiya + o'z-o'zini rivojlantirish	Uzluksiz kasbiy taraqqiyot

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda psixologik determinantlar o'zaro integratsiyalashgan holda namoyon bo'ladi. Ularning har biri alohida ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, kompleks tarzda pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlaydi. Shu bois, ta'lim tizimida o'qituvchilarning psixologik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni joriy etish muhim vazifa sifatida qaraladi.

MUHOKAMA VA TAHLIL. Olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, psixologik determinantlar boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda tizimli va ustuvor omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, motivatsiya va refleksiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik pedagogning kasbiy o'sish dinamikasini belgilovchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi. Ichki motivatsiyaga ega o'qituvchi o'z faoliyatiga ongli yondashadi, refleksiya orqali o'z tajribasini tahlil qiladi va shu asosda o'zini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqadi. Bu jarayon esa o'z navbatida kasbiy faoliyatning sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilishiga olib keladi.

Tahliliy yondashuv shuni ham ko'rsatadiki, emotsional barqarorlik pedagogik faoliyatning barqarorligini ta'minlovchi psixologik "tayanch mexanizm" hisoblanadi. O'qituvchining stressga chidamliligi, emotsiyalarni boshqara olish qobiliyati va psixologik moslashuvchanligi nafaqat uning individual samaradorligini, balki butun sinfdagi ijtimoiy-psixologik muhitni ham belgilaydi. Shu bilan birga, kommunikativ kompetensiya va emotsional intellekt o'rtasidagi uzviy bog'liqlik pedagogik muloqot samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi tomonidan yaratilgan ijobiy emotsional muhit o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini kuchaytiradi, ularning ijtimoiy faolligini oshiradi hamda ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy ta'lim tizimining transformatsiyalashuvi sharoitida o'qituvchining kasbiy kompetentligiga qo'yilayotgan talablar sezilarli darajada kengaymoqda. Endilikda pedagogdan nafaqat fan asoslarini mukammal bilish, balki innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik, refleksivlik va doimiy o'zini rivojlantirishga tayyorlik kabi psixologik sifatlar ham talab etilmoqda. Shu nuqtai nazardan, pedagoglarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida psixologik kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan integrativ yondashuvni joriy etish zarur. Bunda treninglar, refleksiv seminarlar, psixologik diagnostika va individual rivojlanish dasturlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka erishish imkonini beradi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish ko'p omilli, tizimli va uzluksiz jarayon bo'lib, unda psixologik determinantlar hal

qiluvchi o'rin egallaydi. Tadqiqot natijalari motivatsiya, refleksiya, emotsional barqarorlik, kommunikativ kompetensiya va o'z-o'zini rivojlantirish kabi omillar o'qituvchining kasbiy samaradorligini ta'minlovchi asosiy psixologik resurslar ekanligini ko'rsatdi. Ushbu determinantlarning uyg'un rivojlanishi pedagogning nafaqat kasbiy mahoratini, balki shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim muhitida o'qituvchining raqobatbardoshligi ko'p jihatdan uning psixologik tayyorgarlik darajasiga bog'liqligi aniqlanadi. Bu esa pedagogik ta'lim tizimida an'anaviy bilim berishga yo'naltirilgan yondashuvdan kompetensiyaviy va shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga o'tishni taqozo etadi. Shu bois, pedagoglarni tayyorlash jarayonida psixologik determinantlarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodik tizimni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Kelgusida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda psixologik determinantlarning o'zaro integratsiyasi, ularning diagnostikasi va rivojlantirish mexanizmlarini chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, raqamli ta'lim muhitida pedagoglarning psixologik moslashuvchanligini oshirish, ularning emotsional intellektini rivojlantirish hamda refleksiv faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy pedagogik fan oldidagi ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Fayzullayev, M. M. (2023). PSYCHOLOGICAL LITERACY AND ITS ASSESSMENT OF IN YOUTH. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(6), 170-172.
2. Fayzullayev, M., & Dexqonov, T. (2025). OILA PSIXOLOGIYASI: FARZAND TARBIYASIDA EMOTSIONAL INTELLEKTNING AHAMIYATI. *Универсальный индекс библиотеки молодых ученых*, 3(24), 98-101.
3. Mirzamurodovich, F. M. (2025). PSYCHOLOGICAL LITERACY IN ADOLESCENTS AS A FACTOR OF SOCIALIZATION. *SHOKH LIBRARY*, 1(12).
4. Fayzullayev, M., Xamraqulov, M., & Lutfiddinov, M. (2025). O 'SMIRLIK DAVRIDA KOGNITIV RIVOJLANISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. *Универсальная индексная библиотека науки и техники в современном мире*, 4(17), 22-25.
5. Mirzamurodovich, F. M. (2026). O 'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK SHAKLLANISHINING MOTIVATSION OMILLARI VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. *SHOKH LIBRARY*, 1(1).
6. Mirzamurodovich, F. M. (2026). Teacher at the Department World Languages of Kokand University. *Shokh Articles Library*, 1(1), 348-354.
7. Mirzamurodovich, F. M. (2026, January). THE IMPACT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY ON ADOLESCENT INTELLECTUAL DEVELOPMENT. In *London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI)* (Vol. 3, No. 2, pp. 458-462).
8. Mirzamurodovich, F. M. (2026, February). STRESS RESILIENCE AS A KEY DETERMINANT IN PSYCHOLOGICAL LITERACY. In *International Conference on Artificial Intelligence and Applications (ICAIA)* (Vol. 2, No. 1, pp. 56-61).
9. Mirzamurodovich, F. M. (2026, February). THE IMPACT OF ADOLESCENTS' PSYCHOLOGICAL LITERACY ON THEIR ACADEMIC ACHIEVEMENT. In *Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation-SICMRI 2025* (Vol. 3, No. 2, pp. 16-21).
10. Mirzamurodovich, F. M. (2026). STRESS TOLERANCE IS A PERSONAL FACTOR THAT DETERMINES THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL LITERACY. *Shokh Articles Library*, 1(1), 375-381.
11. Mirzamurodovich, F. M. (2026, March). The educational and didactic opportunities of role-playing games in developing students' self-esteem. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY* (Vol. 3, No. 3, pp. 20-24).

12. Mirzamurodovich, F. M. (2026, February). STRESS RESILIENCE AS A KEY DETERMINANT IN PSYCHOLOGICAL LITERACY. In International Conference on Artificial Intelligence and Applications (ICAIA) (Vol. 2, No. 1, pp. 56-61).
13. Mirzamurodovich, F. M. (2026, February). THE IMPACT OF ADOLESCENTS' PSYCHOLOGICAL LITERACY ON THEIR ACADEMIC ACHIEVEMENT. In Scottish International Conference on Multidisciplinary Research and Innovation–SICMRI 2025 (Vol. 3, No. 2, pp. 16-21).
14. Mirzamurodovich, F. M. (2026, January). THE IMPACT OF PSYCHOLOGICAL LITERACY ON ADOLESCENT INTELLECTUAL DEVELOPMENT. In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 3, No. 2, pp. 458-462).
15. Mirzamurodovich, F. M. (2026). STRESS TOLERANCE IS A PERSONAL FACTOR THAT DETERMINES THE LEVEL OF PSYCHOLOGICAL LITERACY. Shokh Articles Library, 1(1), 375-381.
16. Mirzamurodovich, F. M. (2026). Teacher at the Department World Languages of Kokand University. Shokh Articles Library, 1(1), 348-354.
17. Mirzamurodovich, F. M. (2025). PSYCHOLOGICAL LITERACY IN ADOLESCENTS AS A FACTOR OF SOCIALIZATION. SHOKH LIBRARY, 1(12).
18. Mirzamurodovich, F. M. (2025). INKLYUZIV TA'LIMGA MUHTOJ BOLALARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNING NAMOYON BO 'LISHI. Research Focus, 4(Special Issue 2), 489-494.
19. Mirzamurodovich, F. M. (2025). PSYCHOLOGICAL LITERACY IN ADOLESCENTS AS A FACTOR OF SOCIALIZATION. SHOKH LIBRARY, 1(12).
20. Mirzamurodovich, F. M. (2024, October). O 'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIKNI ANIQLASHDA KORRELATSION TAHLIL. In Russian-Uzbekistan Conference (Vol. 1, No. 1).
21. Mirzamurodovich, F. M. (2026). O 'SMIRLARDA PSIXOLOGIK SAVODXONLIK SHAKLLANISHINING MOTIVATSION OMILLARI VA IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. SHOKH LIBRARY, 1(1).
22. Anvarovna, A. S. (2026, January). INTERACTIVE PEDAGOGICAL APPROACHES AS A KEY FACTOR IN THE FORMATION OF SOCIAL AND EMOTIONAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 3, No. 2, pp. 51-58).
1. Anvarovna, A. S. PROBLEMS OF DETERMINING SOCIAL INTELLIGENCE IN PERSONAL DEVELOPMENT. Pedagogika, 48.
2. Anvarovna, A. J. S. Ingliz tilini o'rgatishda loyixa ishini tashkil qilishning afzalliklari.
3. Anvarovna, A. S. PSYCHOLOGICAL PRESSURES IN ENGLISH LANGUAGE LEARNING: CAUSES, IMPACT MECHANISMS, AND PEDAGOGICAL SOLUTIONS.
4. Anvarovna, A. S. THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN IMPROVING ENGLISH LANGUAGE LEARNING OUTCOMES.
5. Anvarovna, A. S. (2024). THE STUDY OF THE PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE TEACHER PERSONALITY IN WORLD PSYCHOLOGY. JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY, 7(6), 28-31.
6. Anvarovna, A. J. S. (2025). KORREKTSION PEDAGOGIKADA GAMIFIKATSIYA (O 'YINGA ASOSLANGAN O 'QITISH) TEXNOLOGIYALARINING ROLI. Research Focus, 4(Special Issue 2), 479-488.
7. Anvarovna, A. S. (2026, January). INTERACTIVE PEDAGOGICAL APPROACHES AS A KEY FACTOR IN THE FORMATION OF SOCIAL AND EMOTIONAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In London International Monthly

Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 3, No. 2, pp. 51-58).

8. Anvarovna, A. S. (2026). DETERMINANTS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL-EMOTIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS IN HIGHER EDUCATION. Shokh Articles Library, 1(1), 262-267.

9. Anvarovna, A. S. (2026, January). INTERACTIVE PEDAGOGICAL APPROACHES AS A KEY FACTOR IN THE FORMATION OF SOCIAL AND EMOTIONAL COMPETENCE IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. In London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation (LIMCMRI) (Vol. 3, No. 2, pp. 51-58).

10. Anvarovna, A. S. (2025). INTEGRATING PSYCHOLOGICAL APPROACHES INTO ENGLISH LANGUAGE EDUCATION. Shokh Articles Library, 1(2).

11. Anvarovna, A. J. S., & Shahrizoda, D. (2025). INGLIZ TILINI O 'RGANISHGATA'SIR QILUVCHI PSIXOLOGIK OMILLAR. Shokh Articles Library, 1(2).

12. Атаходжаева, Ш. А. (2025). ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА УСПЕХ В ИЗУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА. Shokh Articles Library, 1(2).

13. Anvarovna, A. J. S. (2025). SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI TIL O 'RGANISH PLATFORMALARINING PSIXOLOGIK TA'SIRI. Shokh Articles Library, 1(2).

14. Anvarovna, A. J. S. (2025). BIOLOGIYA YO 'NALISHI TALABALARIDA KOGNITIV JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISHGA YO 'NALTIRILGAN UMUMIY PSIXOLOGIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI. Shokh Articles Library, 1(2).

15. Usarov, J. E., Khimmataliev, D. O., Kuvatova, N. B., Atakhujaeva, S. A., Chudakova, V. P., & Akbarova, N. N. (2022). Pedagogical competence.

16. Anvarovna, A. S. EMPIRIAL FOUNDATIONS OF THE STUDY OF FUTURE ENGLISH TEACHERS'SOCIAL INTELLIGENCE. Pedagogika, 23

17. Ataxo'Jayeva, S. A. (2023). O 'qituvchilarining sotsiologiyaviy xususiyatlari. Academic research in educational sciences, 4(TMA Conference), 111-115.

18. Atakho'jayeva, S. A. (2025, October). Ways To Form The Social-Emotional Competence Of A Foreign Language Teacher In The Conditions Of Digital Education. In International Conference on Global Trends and Innovations in Multidisciplinary Research (Vol. 1, No. 4, pp. 75-80).

19. Atakhujaeva, S. A. (2022). DIAGNOSIS OF ADOLESCENTS'UNDERSTANDING OF MORAL AND LEGAL FORMS. INTERNATIONAL CONFERENCE ON LEARNING AND TEACHING, 1(4), 317-319.